

**“TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARIDA
ILM VA TARBIYA TALQINI**

To'ychiyeva Aqida Abram qizi

*Nizomiy nomidagi TDPU Maxsus pedagogika va
Inklyuziv ta'lim fakulteti Logopediya yo'nalishi 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: "TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ" asarida ilm va tarbiya talqini muhim o'rin egallaydi. Asar o'zida turli mushoiralar, hikoyalar va oqimlarni aks ettirib, ilmning hayotdagi ahamiyatini, tarbiyaning roli va axloqiy qadriyatlarning mohiyatini yoritadi. Muallif, turli misollar orqali, ilm-fan va tarbiya orqali insonlarning ruhiy, axloqiy ko'nikmalarini rivojlantirishga chaqiradi. Ushbu asarda ilmni o'zlashtirish, tarbiya olish va axloqiy me'yorlarga amal qilish hayotda muvaffaqiyatga erishishda muhim omil sifatida taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: ilm, tarbiya, axloq, tafakkur, hikoya, ta'lim, axloqiy me'yorlar, qadriyatlar, inson rivoji.

Аннотация: в «Туркском Гулистане или Мистри интерпретация знаний и образования играет важную роль». Работа рассказывает о важности науки, важности науки и моральных ценностей, важности знания, роли и моральных ценностей знания в работе. Автор, посредством различных примеров, призывает к развитию духовных, моральных навыков людей с помощью науки и дисциплины. В этой работе наука представлена в качестве важного фактора в достижении образования, воспитания и соблюдения моральных стандартов.

Ключевые слова: наука, образование, мораль, оскорбления, образование, моральные стандарты, костюмы, человеческое развитие.

Annotation: In the "Turkic Gulistan or MISTRY, the interpretation of knowledge and education plays an important role. The work briefs the importance of science, the importance of science and moral values, the importance of knowledge, the role and moral values of knowledge in the work. Author, through various examples, calls for the development of people's spiritual, moral skills through science and discipline. In this work, science is presented as an important factor in achieving education, upbringing and adherence to moral standards.

Key words: science, education, morality, insults, education, moral standards, suitives, human development.

Abdulla Avloniy (1878-1934) — o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, pedagog, jamoat arbobi va milliy g'oya targ'ibotchisi sifatida tanilgan shaxs. Uning asarlari va faoliyati o'zbek tamaddunida muhim o'rin tutadi. Avloniy nafaqat adabiyotda, balki ta'lim va tarbiya sohasida ham o'z izini qoldirgan. Ushbu maqolada

Abdulla Avloniyning o‘zbek tamaddunidagi o‘rni, uning asarlaridagi g‘oyalar va ularning zamonaviy ahamiyati haqida mulohazalar yuritimiz. Abdulla Avloniyning asarlarining ta'lim jarayoni boshqaruvi va zamonaviy pedagog tarbiyasidagi o‘rni tahlil etiladi. Avloniy, o‘z davrining yetakchi ma’rifatparvarlaridan biri sifatida, ta'lim va tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Uning asarlarida ilm-fan, madaniyat va axloqiy qadriyatlarni birlashtiruvchi g‘oyalar mavjud bo‘lib, bu g‘oyalar zamonaviy ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Avloniy o‘z asarlarida milliy qadriyatlarni, ma’naviyatni va xalqning tarixiy xotirasini saqlashga intilgan. U yosh avlodni tarbiyalashda ta’limning ahamiyatini tushunib, pedagogik faoliyatini ham birinchi o‘ringa qo‘ygan. Avloniy shuningdek, o‘zbek tilining rivojlanishi va uning ilmiy va adabiy sohalarda qo‘llanilishi uchun ko‘plab sa’y-harakatlar qilgan. Turkiy Guliston yoxud Axloq” asari o‘zining adabiyati va ma’rifiy yetakchiligi bilan ajralib turadi. Bu asarda ilm va tarbiya talqini insoniyat uchun muhim qiymat sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif, asar orqali ta'lim olish va tarzda yashash tarzi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniq ifodalashga harakat qiladi. Ilm, insonning ongini rivojlantiruvchi va uning dunyoqarashini kengaytiruvchi asosiy vosita sifatida taqdim etiladi. Muallif ilmni faqat nazariy bilimlar to‘plami sifatida emas, balki amaliyot va hayot tajribasi orqali olingan tajribalar sifatida ko‘rsatadi. Ilm, asarning markazida joylashgan axloqiy qadriyatlarni shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Tarbiya esa, insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi, uning axloqiy fazilatlarini rivojlantiruvchi jarayon sifatida o‘rganiladi. Tarbiyaning ahamiyati, nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti uchun ham muhimdir. Asardagi misollar va hikoyalar orqali tarbiyaning turli jihatlari, masalan, oiladagi tarbiya, muassasalardagi ta'lim tizimi haqida muhim fikrlar beriladi. Bundan tashqari, axloqiy me’yorlar ham asarda alohida o‘rin egallaydi. Axloq, insonning ichki dunyosini tarbiyalash va uning shaxs sifatida shakllanishi uchun zaruriy me’yorlar to‘plami sifatida ko‘riladi. Axloqiy qadriyatlar esa, ilm va tarbiya jarayonlarida mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi. Turkiy Guliston yoxud axloq asarini mashhur pedagog, ma’rifatparvar adib va shoir Abdulla Avloniy tomonidan yaratilgan o'ziga xos axloq kodeksi desak, also xato bo'lmaydi. Mazkur asar maktablarda bolaning axloqi, keng va teran fikrlashi, tarbiyasi uchun o'quv qo'llanma sifatida o'qitilgani ayon. Yozuvchining quyidagi fikrlari ham bu ma'lumotlarni quvvatlaydi: "Men bu asarni nochizonamni birinchi maktablarimizning yuqori sinflarida ta'lim bermak ila barobar ulug' adabiyot muhoblari, axloq havaskorlarining anzori oliylariga taqdim qildim". Darhaqiqat, "Turkiy Guliston yoxud axloq kitobi yosh avlod tarbiyasida nimayiki muhim bo'lsa, ularning barchasini to'la to'kis qamrab olgan va ifoda etgan mufassil tarbiyanomadir. Asarda yozuvchi quruq bayonchilik, roviylik yo'lidan bormaydi, fikrning emotsional ta'sirchanligi, estetik zavq ruhini oshirish maqsadida Sharq xalqlari orasida mashhur bo'lgan afsona, rivoyat, hikoyat va hikmatli so'zlardan iqtiboslar keltirib, o'z qarashlarini dalillaydi. Jumladan, asar

muallifi kopincha payg'ambarimiz (s.a.v) tomonidan aytilgan hadislarni misol keltiradi. Rasuli akram nabiiyi muhtaram afandimiz: "Eng yomon kishilar ilmiga amal qilmaydurg'an kishilar", demishlar. Ushbu hikmatli so'zni Avloniy shunday izohlaydi: "Agar tarbiya qiluvchi muallim o'zi olim bo'lub, amalsiz bo'lsa, buning ham shogirdlarning axloqiga zo'r ta'siri bo'latur. Turkiy Guliston yoxud axloq asarining mazkur o'rinlarida asar badiiyatiga xos alohida belgilar bilan birga yozuvchi uslubining muhim qirralari ham ko'zga yaqqol tashlandi. Avloniy fikr kishisi, teran tafakkur, keng fitrat va o'tkir zehn sohibidir. "Turkiy Guliston yoxud axloq" pandnomasidagi mulohazalar shunday deyishimiz uchun to'la asos beradi. Asarda farzand tarbiyasi, ta'limning tarbiya bilan bevosita bog'liqligi, ilm-fan insoni jaholat botqog'idan qutqaruvchi qudratli kuch ekani juda ishonchli yoritilgan. Asar muallifi hech bir masalada biryoqlamalikka berilmaydi, gap kelajak avlodning tarbiyasi xususida ketar ekan, yozuvchining gumanist insonparvar qiyofasi kitobda bo'y ko'rsatib turaveradi. Jumladan, yetuk pedagogning yozishicha, kishining tarbiyasida noqisliklar, kemtikliklar kuzatilsa, hatto axloqi buzuq bo'lsa ham, u o'z xatolarini tuzatishga intilsa yoki kamchiliklarini tushunib yetsa, bunday odamni tarbiyalash mumkin. Har qanday komil axloq egalari, qalbi, ruhi va fikri sog'lom bo'lgan jamiyatning ilg'or kishilari yon atrofida gilariga o'z fazilatlari bilan o'rnak bo'lishlari lozim va ularning go'zal odobi boshqalarga ham namunadir. Masalan, bir daraxt mevasi yomon bo'lsa, ul daraxtga mehr berib, payvandlab, parvarish qilinsa, albatta, mevasi shirin bo'ladi. Xulq ham xuddi shunday: unga qancha amal qilsak, shuncha mukammallashib, nafosatli bo'lib boraveradi. Abdulla Avloniy ilmni axloqdan, ta'limni tarbiyadan, ma'rifatni go'zal xulqdan hech qachon ajratib talqin qilmaydi. Muallifning fikricha, "Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir Muallif aytayotgan ilmning mevasi ham, avvlo, tarbiya va ma'naviy yetuklik ekani ma'lum. Chunki, ilmli kishi har yerda hurmatga sazovor bo'ladi. U yuksak axloq sohibi ham bo'lsa, obro'-e'tibori yanada ulug bo'ladi. Ilm olishga intilishni yozuvchi go'yo qorong'u g'ordan yog'du axtargan kishining holatiga qiyoslaydi. Bu intilishlar oxir-oqibatda insonni o'zi istagan yorug' manzillarga boshlaydi. Avloniyning yozishicha: Ilm insonni "Jaholat qorong'uligidan qutqarur. Turkiy guliston yoxud axloq"da mana shu: mundarija izoh va iqtibos yoki tamsil usuli asar oxirigacha davom etgan. Mundarijada fikr mavzusi yoritilsa, izohda axloq, ta'lim-tarbiya borasida keng va foydali qarashlar bayon qilinadi. Aytligan fikrlarning isboti biror hikmatli so'zni iqtibos sifatida keltirish yoki hayotiy lavhani misol tarzida ko'rsatish orqali jonli dalillanadi. Bu asarning o'qishliligini ta'minlaydi, o'quvchining qiziqishini orttiradi va ta'sirchanlikni kuchaytiradi.

Shunday qilib, "Turkiy Guliston yoxud Axloq" asarida ilm va tarbiya talqini insonning shaxs sifatida shakllanishi, axloqiy qadriyatlarni qabul qilish va jamiyatga foyda keltirishi uchun asosiy omil sifatida taqdim etiladi. Bu asar, nafaqat adabiyot ixlosmandlari, balki ilm va tarbiyaning ahamiyatini anglashni xohlagan har bir inson

uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar:

1. Avloniy tanlangan asarlar. 1-jild – Toshkent, Ma’naviat 2006
2. Hayitmetov A., Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan. – Toshkent
3. ALIYEV a, Sodiqov Q, o‘zbek tili tarixidan – Toshkent, O‘zbekiston, 1994.z
4. <https://interonconf.org/index.php/fra/article/download/1887/1691/1673>